

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SPIRINLARDA INDIVIDUAL- TIPOLOGIK XUSUSIYATLAR NAMOYON BO‘LISHINING GENDER JIHATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-622-626>

Avlayev O.U.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Psixologiya” kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Xaqberdiyeva U.K.

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o‘spirinlarda individual-tipologik xususiyatlarning gender kesimidagi namoyon bo‘lish qonuniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy-dinamik xususiyatlar orqali o‘g‘il va qiz o‘spirinlarda moslashuvchanlik, emotsionallik, ijtimoiy faollik va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlaridagi farqlar aniqlangan. Natijalar imkoniyati cheklangan o‘spirinlarning psixologik rivojlanishida gender omilining muhim determinanta sifatida namoyon bo‘lishini hamda ijtimoiy tajriba, kommunikativ ehtiyoj va emotsional reaksiyadagi tafovutlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Maqolada keltirilgan xulosalar ta’limiy hamda korreksion jarayonlarda genderga mos differensial yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar. imkoniyati cheklangan o‘spirinlar; individual-tipologik xususiyatlar; gender tafovutlari; rasmiy-dinamik xususiyatlar; emotsional reaksiyalar; ijtimoiy moslashuv; differensial yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются закономерности проявления индивидуально-типологических особенностей подростков с ограниченными возможностями в гендерном аспекте. В ходе исследования на основе формально-динамических характеристик были выявлены различия в показателях адаптивности, эмоциональности, социальной активности и саморегуляции у юношей и девушек. Результаты показывают, что гендерный фактор выступает важным детерминантом психологического развития подростков с ограниченными возможностями и связан с различиями в социальном опыте, коммуникативных потребностях и эмоциональных реакциях. Выводы статьи обосновывают необходимость применения гендерно-ориентированного дифференцированного подхода в образовательном и коррекционном процессах.

Ключевые слова: подростки с ограниченными возможностями; индивидуально-типологические особенности; гендерные различия; формально-динамические характеристики; эмоциональные реакции; социальная адаптация; дифференцированный подход.

Abstract. This article analyzes the patterns of individual-typological characteristics in adolescents with disabilities from a gender perspective. Through the study of formal-dynamic features, differences in adaptability, emotionality, social activity, and self-regulation indicators were identified between male and female adolescents. The results demonstrate that the gender factor serves as a significant determinant in the psychological development of adolescents with disabilities and is linked to differences in social experience, communicative needs, and emotional reactions. The conclusions presented in the article substantiate the necessity of applying a gender-appropriate differential approach in educational and correctional processes.

Keywords: *adolescents with disabilities; individual-typological characteristics; gender differences; formal-dynamic characteristics; emotional reactions; social adaptation; differential approach.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim va ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida imkoniyati cheklangan o'spirinlarning psixologik rivojlanishini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu toifadagi o'spirinlar o'ziga xos psixofiziologik rivojlanish sharoitida ulg'aygani sababli, ularning individual-tipologik xususiyatlari sog'lom tengdoshlaridan sezilarli darajada farq qilishi tabiiydir. Ayniqsa, gender omili bu farqlarning shakllanishida muhim psixologik determinanta sifatida namoyon bo'lib, o'g'il va qiz o'spirinlarning emotsional, ijtimoiy va moslashuvchan xususiyatlarida turli yo'nalishdagi dinamikani yuzaga keltiradi. Shu sababli, imkoniyati cheklangan o'spirinlarda rasmiy-dinamik sifatning gender kesimida o'rganilishi ularning shaxsiy resurslarini aniqlash, psixologik yordam strategiyalarini ishlab chiqish hamda differensial-pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot aynan ushbu yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, individual-tipologik ko'rsatkichlarning gender xususiyatlarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxs murakkab xilqat ekanligi psixologiyadagi shaxsga oid nazariyalarda ko'p bora takrorlanadi. Ulardan biri A.Adlerning "Individual psixologiyasi"da inson yagona va o'zini o'zi izchil organizm ekanligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Adler psixologiyasining asosiy asosidir (Adler, 1927). Adler o'z nazariyasiga "individual psixologiya" nomini berdi, chunki lotincha "individuum" "bo'linmas"degan ma'noni anglatadi - ya'ni bo'linmaydigan shaxs degani. Adler hayotiy faoliyatning hech qanday namoyon bo'lishini izolyatsiya qilish mumkin emas, faqat umuman shaxsga nisbatan[2]. Shaxs miya va tana o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ham, aqliy hayotga nisbatan ham bo'linmas bir butundir. Adler o'z-o'zini izchil va yagona shaxsning tuzilishini turmush tarzi sifatida aniqladi. Ushbu Konsepsiyada, boshqa har qanday narsadan ko'ra, uning urinishi ifodalanadi[2]

Ta'kid joizki, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'spirinlarning psixik imkoniyatlarini faqatgina hissiy -irodaviy sohasini tadqiq etish bilan baholanib qolmasdan, balki, ularning o'zlashtirishi va mnemik faoliyati bilan bog'liq o'ziga xosliklarni aniqlash borasida ham, ayrim tadqiqotlar mavjud. Mualliflardan V.D.Shadrikov va L.V.Cheremoshkinalar o'z tadqiqotlarida, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'spirinlarni o'qitishda hisobga olinadigan, samarali mnemik faoliyat usullariga bir qator omillarni kiritib o'tadilar [5, 6].

Psixologiya fanida shaxsga ijtimoiy munosabatlar jarayonida kamol topadigan ongli mavjudot sifatida qaraladi. Shaxsning shakllanishi va kamol topishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ahamiyatiga binoan, xususiyatlari va tabiatiga tavsif beriladi. Imkoniyati cheklangan o'spirinlarda individual-tipologik xususiyatlar namoyon bo'lishining gender jihatlari to'g'risidagi ma'lumotga

aniqlik kiritishda ularning psixologik xususiyatlari, emotsional holati va irodaviy sifatlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Metod. Imkoniyati cheklangan o'spirinlarning individlik va shaxslilik xususiyatlarini o'rganish uchun V.M.Rusalovning «Temperament tuzilmasi» metodikasidan foydalandik[4]. Ushbu metodikani tanlashimizdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad uning tarkibidagi shkalalar odamning individlik va shaxslilik xususiyatlariga xos jihatlarini yoritishi hamda tadqiqot natijalariga sinaluvchilarning ob'ektiv yondashganliklarini belgilovchi nazorat shkalasiga egaligidir. Bu metodikada 9 ta: erigichlik; ijtimoiy erigichlik; plastiklik; ijtimoiy plastiklik; sur'at; ijtimoiy sur'at; emotsionallik; ijtimoiy emotsionallik; nazorat shkalalari mavjud. Tadqiqotda 122 nafar o'spirin qatnashdi (60 nafar o'g'il, 64 nafar qiz).

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash jarayonida sinaluvchilarning bir qator ko'rsatkichlari: umumiy, jinsi, yoshiga ko'ra tahlil qilishni nazarda tutdik va shunga asoslandik.

1-jadval

Imkoniyati cheklangan o'spirinlarda individual-tipologik xususiyatlar namoyon bo'lishining gender jihatlarini ko'rsatkichlari (N=124)

№	SHKALALAR	Umumiy		Imkoniyati cheklangan o'spirinlar		Sog'lom o'spirinlar	
		Imkoniyati cheklangan o'spirinlar	Sog'lom o'spirinlar	O'g'il N=30	Qiz N=32	O'g'il N=30	Qiz N=32
1	Erigichlik	6,85±0,76	6,8±0,62	6,3	7,4	6,4	7,2
2	Ijtimoiy erigichlik	5,8±0,51	7,0±0,83	5,8	5,8	6,6	7,4
3	Plastiklik	6,0±0,60	7,25±0,75	6,0	6,0	6,3	8,2
4	Ijtimoiy plastiklik	4,2±0,12	4,8±0,25*	4,4	4,0	4,1	5,5
5	Sur'at	7,25±0,64	7,45±0,82	7,3	6,2	7,4	7,5
6	Ijtimoiy sur'at	5,6±0,48	5,2±0,43	5,3	5,9	4,9	5,5
7	Emotsionallik	9,05±0,32**	7,45±0,26	8,3	9,8	7,3	7,6
8	Ijtimoiy emotsionallik	6,85±0,38	7,0±0,43	6,2	7,5	7,2	6,8
9	Nazorat	5,1±0,35	4,65±0,24	5,2	5,0	4,8	4,5

*P≤0,05; **P≤0,01.

Jadval ma'lumotlari imkoniyati cheklangan hamda sog'lom o'spirinlarda individual-tipologik xususiyatlarning gender ko'lamida differensial namoyon bo'lishini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan o'spirinlarda individual xususiyatlar ifodasining bir qator shkalalarda pasayganligi va bu farqlar ko'pincha gender omiliga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Birinchidan, erigichlik va plastiklik ko'rsatkichlarida imkoniyati cheklangan o'spirinlar o'g'il va qizlarida farq miqdori nisbatan kichik bo'lsa-da, sog'lom tengdoshlarda qizlarda ko'rsatkichlar yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat

moslashuvchanlik va yangi vaziyatlarni qabul qilish borasida qizlar ijtimoiy muhitga tezroq moslasha olishidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy erigichlik va ijtimoiy plastiklik shkalalarida imkoniyati cheklangan o'spirinlarda jinsiy tafovutlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. O'g'il o'spirinlarda normal ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish sur'ati qizlarga nisbatan yuqoriroq, qizlarda esa ayni ko'rsatkichlarning pastligi ijtimoiy muloqotdagi ehtiyotkorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ko'proq ehtiyoj yoki o'zaro teng munosabatlarning murakkab kechishi bilan izohlanishi mumkin.

Uchinchi yo'nalish sifatida, emotsionallik va ijtimoiy emotsionallik ko'rsatkichlari gender jihatdan sezilarli farq beradi. Imkoniyati cheklangan o'spirinlar qizlarida emotsional javob berish darajasi yuqoriligi, hissiy-ta'sirchanlikning kuchli ifodalanishi qayd etiladi. Bu psixologik himoya mexanizmlarining ustuvorligi va empatiya, kechinmalarga sezuvchanlikni ko'rsatadi. Sog'lom o'spirinlarda esa hissiy barqarorlik va muvozanatli emotsional reaksiya qizlarda ham, o'g'illarda ham tengroq taqsimlangan.

To'rtinchidan, sur'at va ijtimoiy sur'at bo'yicha imkoniyati cheklangan guruhda gender tafovutlar deyarli neytral bo'lsa, sog'lom o'spirinlarda faoliyat dinamikasida qizlar o'g'illarga nisbatan biroz ustunlik qiladi. Bu farq bilish jarayonlari tezligi, qaror qabul qilish sur'ati va ijtimoiy fikrlashning tashkiliy imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Nihoyat, nazorat shkalasida imkoniyati cheklangan o'g'il va qizlar o'rtasidagi farq minimal bo'lib, o'zini boshqarish jarayoni qiyinchiliklarining umumiyliги kuzatiladi. Sog'lom o'spirinlarda esa qizlarda nazorat ko'rsatkichlari biroz yuqori bo'lib, bu irodaviy tartibga solish, intizom va o'z xulqini ongli boshqarishning rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, natijalar imkoniyati cheklangan o'spirinlarda jinsiy tafovutlarning emotsional va ijtimoiy xususiyatlarda kuchliroq, sog'lom o'spirinlarda esa moslashuvchanlik va o'zini nazorat qilish parametrlari bo'yicha yaqqol ifodalanganini ko'rsatadi. Bu holat gender psixologiyasi tamoyillariga ko'ra ontogenezing ijtimoiy tajriba, tarbiya muhitining sifati va psixofiziologik rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, individual-tipologik xususiyatlar imkoniyati cheklangan o'spirinlarda sog'lom tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada differensial namoyon bo'ladi va bu farqlar gender omili bilan uzviy bog'liqdir. Imkoniyati cheklangan o'spirinlarda ko'rsatkichlarning pastligi, ayniqsa, ijtimoiy erigichlik, plastiklik va nazorat kabi shkalalarda kuzatilishi ularning *ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonlarida qiyinchiliklarning mavjudligini* tasdiqlaydi.

Jinsiy farqlar kesimida esa o'g'il o'spirinlarning ijtimoiy o'zgaruvchanlikka tezroq moslashish tendensiyasi, qiz o'spirinlarda esa emotsional ta'sirchanlikning yuqoriligi aniqlanmoqda. Sog'lom guruhda gender tafovutlari nisbat e'tibordan holi bo'lib, individual parametrlarning umumiy barqarorligi qayd etiladi. Bu esa

sogʻlom oʻspirinlarda psixologik himoya tizimlari, ijtimoiy kompetensiya va hissiy oʻzini boshqarish mexanizmlarining yetuk shakllanganligini koʻrsatadi.

Shunday qilib, tadqiqot maʼlumotlari imkoniyati cheklangan oʻspirinlarning individual-tipologik rivojlanishida gender omilining taʼsiri murakkab va koʻp qatlamli ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur farqlarni hisobga olish taʼlimiy, korreksion va psixologik amaliyotda differensial yondashuvni talab qiladi. Xususan, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va oʻzini boshqarish koʻnikmalarini qoʻllab-quvvatlash imkoniyati cheklangan oʻspirinlarning psixologik salomatligini mustahkamlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avlaev, O. (2024). Types of personality according to the development level of social intelligence. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
2. А. Адлера индивидуальная психология // 1. Малая медицинская энциклопедия. — М.: Медицинская энциклопедия. 1991—96 гг. 2. Первая медицинская помощь. — М.: Большая Российская Энциклопедия. 1994 г. 3. Энциклопедический словарь медицинских терминов. — М.: Советская энциклопедия. — 1982—1984 гг. // [dic.academic.ru/contents.nsf/enc_medicine/Медицинская энциклопедия]
3. Карвасарский Б. Д. Индивидуальная психология // Психотерапевтическая энциклопедия. — С.-Пб.: Питер. — 2000. // Психотерапевтическая энциклопедия. — С.-Пб.: Питер : Б. Д. Карвасарский. — 2000.
4. Русалов, В. М. Темперамент в структуре индивидуальности человека. Дифференциально-психофизиологические и психологические исследования / В. М. Русалов. — Москва : Институт психологии РАН, 2012. — 528 с. — (Достижения в психологии). — Режим доступа: по подписке. — URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=221117> (дата обращения: 15.01.2026). — ISBN 978-5-9270-0234-4.
5. Черемошкина Л. В. Психология мнемических способностей : дисс. доктора психол. наук / Л. В. Черемошкина. - Ярославль, 2000. — 587 с.
6. Шадриков В. Д. Введение в психологию: эмоции и чувства /. - М.: Логос, 2002. — 156 с
7. Samarova, S. R., Avlaev, O. U., Mirzayeva, S. R., Tojiboyev, M. N., & Raxmanova, D. U. (2024, March). Student's intellectual activity in the process of developing informational and communicative competence. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1, p. 060029). AIP Publishing LLC.
8. Usarov, J. E., Avlaev, O. U., Yuldasheva, S. M., Norova, N. O., Vafoeva, G. B. K., Kizi, S. S., & Nurmatova, N. B. Q. K. A New Approach to Creating Personality Types. *people*, 5, 6.